

# O`ZBEKISTON HUDUDIDAGI MADANIY MEROS OBYEKTALARIDA QO`LLANILGAN ARXITEKTURAVIY ELEMENTI: SHARAFVA VA MUQARNASNING QO`LLANILISH VA YASALISH BOSQICHLARI

*Sa`dullayeva Nigora<sup>1</sup>  
Kamilova Marjona<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O`zbekiston hududidagi me`moriy yodgorliklarning arxitekturaviy elementlari: sharafa, muqarnaslarning qo`llanilish uslublari, foydalanish bosqichlari, ularning turlari, yasalish tartibi yoritilgan. O`zbekiston me`moriy obidalardagi muqarnaslarda qo`llaniladigan qurilish materiallarini maxsus tayyorlash usullari, ganch qorishmaning tayyorlanishi va ishlatilish tartibi keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** Muqarnas, sharafa, mehrob, taxmon, tokcha, tarx, giri, kalla muqarnas, iroqi muqarnas, ustun, adla'l, ganch.

**Kirish:** O`zbekiston hududida ilk bor muqarnas Tim qishlog`idagi [Arab ota maqbarasida](#) (997 yilda) qo`llanilgan. [G`iyosiddin Koshiy „Muftahul qisob“](#) asarida (XV asrda) muqarnasni aniq va ravshan ta`riflagan; uning so`zicha, „muqarnas uyalar (kosachalar) pog`onalaridan (qatorlaridan) tashkil topgan yopmadir ..., u adla'lardan (ya`ni qirralardan) hosil bo`ladi ...“. Bu bilan Koshiy muqarnasning ikki asosiy alomati — qirralar (ravoqchalar) va pog`onalarini (qatorlarini) ko`rsatib bergen. Muqarnas [Temuriylar davri](#) me`morligida keng qo`llanilgan. Buxorodagi [Mir Arab](#), [Abdulazizzon](#), Samarqanddagi [Ulug`bek madrasalarida](#), [Go`ri Amir](#), [Shohizinda ansamblı](#) va boshqalarda muqarnasning ajoyib namunalari yaratilgan [1].

**Muqarnas (arab.** صنورم) — me`moriy bezak turi; ravoqli kosachalarning (uyachalarning) ustma-ust joylashishidan xosil bo`ladigan murakkab shakl. Me`morlikda asosi 4/6/8 burchak bo`lgan [mehrob](#), [taxmon](#), [tokcha](#) va boshqalarning tepe qismini gumbaz, yarim gumbaz ko`rinishiga keltirishda, binolar devori bilan shifti oralig`i, [ustunlar boshasi](#) va boshqalarni bezatishda keng qo`llaniladi. Dastlab sodda shaklga ega bo`lgan, keyinroq murakkab ko`rinishga kirgan hamda bezak maqsadlarida ishlatila boshlangan. Muqarnas ishlanadigan joyiga qarab har xil murakkablikda bo`ladi. Egri sirtga ega bo`lgan ravoqchalarning uchlari oldinga chiqarilib, yuqori qator uchun tayanch xosil qilinadi. Tarxda bu ravoqchalar ko`pincha teng tomonli uchburchakni beradi, ikki va undan ortiq ravoqchalar turli burchaklar ostida o`zaro birikib kosachalar hosil qiladi.

Sharafa — muqarnas turi; muqarnas mujassamoti (ravoqli kosachalar qatorlari)ning gorizontal yo`nalishda chapu rost takrorlanishidan hosil bo`ladi. Sharafa kosachalar qatori o`zgarmasligi bilan boshqa muqarnas turlaridan farq qiladi. Me`morlikda binolarning devor bilan shifti oralig`i, taxmon, mehrob, minoralarning tepe qismini bezashda qo`llanadi. Sharafa ganch, marmar (qozirda gips, beton va boshqalar)dan ishlanadi. Sharafa. mujassamoti akta yordamida to`g`ridan to`g`ri devorga tushirib o`yiladi, quyma usulida tayyorlangan Sharafa bo`laklari esa bezatiladigan sathga yopishtirib hosil qilinadi. Sharafa. Sharq (O`rta Osiyo, ayniqsa, temuriylar davri) me`morligida yuksak taraqqiy etgan. 20-asr o`rtalaridan O`zbekiston me`morligida Sharafa qaytadan keng qo`llana boshlandi (Usta Shirin Murodov, Sh.G`afurov, Q.Jalilov va boshqalar) [2].

<sup>1</sup> “Madaniy meros obyektlarini asrash” kafedrasi o`qituvchisi SamDAQU  
[nigorasadullayeva21@gmail.com](mailto:nigorasadullayeva21@gmail.com)

<sup>2</sup> “Madaniy meros obyektlarini asrash” kafedrasi o`qituvchisi SamDAQU  
[marjonakamilova88@gmail.com](mailto:marjonakamilova88@gmail.com)





**1-Rasm. Samarqand 1933yil minoradagi sharafa ko'rinishi. Samarqand 2022yil sharafa ko'rinishi.**

Sharafa kompozisiyasini mustaqil tuzish va uni amalda bajarish: mashq qog'ozga qalamda chizish va ganch taxtani jarrohlik pichog`ida uyish bilan birga olib boriladi. Kerakli materiallar: ganch, gips yoki alebastr, o`lchami har xil qog`oz, shaffof qog`oz va boshqalar [3].



**3-Rasm. Muqarnaslarning yasalish bosqichi**

O'rta Osiyo xalq me'morchiligidagi muqarnasli ustunlar keng ishlatilgan. Avvalroq ta'kidlaganimizdek, yunon-rim orderlarini o'rganish hozirgi me'moriy ta'lif tizimida yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularning chizmalarini (ortogonal proyeksiyalari, soyalari, perspektivasini) ishslash uslublari darsliklarda keng yoritilgan. Ammo yaxshi o'rganilmaganligi, chizma materialarning kamchiligi, chizish uslublarining yoritilmaganligi tufayli me'moriy o'quv jarayonida mahalliy orderlarining kallak (bosha)larini chizish deyarli qo'llanilmay keltingan.



4-Rasm. Muqarnaslarning ta'mirlanish jarayonlari


Talabalarga topshiriq tarzida O'rta Osiyoning muqarnasli ustun kallagini chizish ilk bor Toshkent arxitektura-qurilish institutida dotsent X. Po'latov rahbarligida amalga oshirilgan. Biz ham ana shu tajribaga asoslanamiz. Muqarnasli ustun kallaklarining asosini ustun o'zagining tepasi tashkil qilib, odatda 6, 8, 12, 16 ta teng ko'pburchaklardan tuzilgan. Muqarnasning qirralari ham asosidagi ko'pburchaklarga mos ravishda ishlangan. Muqarnas ustun o'zagini qurilmaviy va badiiy jihatlardan kompozitsion davom ettiradi va rivojlanadir. Muqarnasli ustun kallagi dorik, ionik, korinf va kompozit orderlaridan kallak bilan o'zak oralig'idagi bo'yin (sheyka)- ning yo'qligi bilan farqlanadi. Bu yerda kallak va o'zak orasida uzilish bo'lmay, ular bir-biriga uzviy qo'shilib ketadi. Muqarnasli kallakning chizmasini bajarishda asosan quyidagilarga e'tibor beriladi:

- Chizmada tik yo'naliш bo'yicha kallakning alohida o'lchangan balandliklari qo'yiladi. Agar chizma naturadan bajarilayotgan bo'lsa o'lchamlar shovun, to'g'ri uchburchakli chizg'ich yordamida koordinata usulida olinadi. Tekshirish uchun umumiylilik o'lchanadi, bunda xususiy balandliklarning yig'indisi umumiylilikka teng bo'lishi kerak.

- Ufqiy (gorizontal) yo'naliш bo'yicha ustun o'zagining ko'p tomonli muqarnas asosidagi ko'pburchaklarning tomonlari hamda muqarnas tarhida hosil bo'ladigan yulduzlarning tomonlari qo'yiladi. Muqarnas ravoqlarining shakldor qirralari (profillari) xitoy qog'oziga (kalkaga) ko'chiriladi. Ko'pburchaklar, yulduzlarning tomoni va qirralari sanaladi. Ushbu o'lchamlar va amallar muqarnasli ustun kallagini chizish uchun yetarli asos bo'lib xizmat qiladi. Chizish «umumiylikdan xususiylikka» uslubi bilan olib boriladi. Chizma jarayonini uch asosiy bosqichga ajratsa bo'ladi.

1-bosqichda umumiylilik ishlari bajariladi. Avval tarzning simmetriya o'qi va tarhning markazi belgilanadi. O'qda ustun kallagini balandliklari yordamchi chiziqlar bilan ko'rsatiladi. Kallak tepasidagi to'sin, qosh va pastdagi ustun o'zagining tepe bo'lagi ham ko'rsatiladi; tarh qirqimi ustun o'zagining ustki sathidan olingani maqsadga muvofiqdir. Bu bosqichda chizmalar hajmlar yordamida umumlashtirilgan holda, ya'ni chizilayotgan kallak yaxlit butunli kesik konus shaklida ifodalanadi. Bosqich oxirida kallak tarzda trapetsiya, tarhda esa markazli aylanalardan iborat bo'ladi.

2-bosqichda muqarnas qirralari oldin tarhda, keyin (tarhdan foydalanib) tarzdagi qirralar ajratiladi. Dastlab tarhda ichki ko'pburchak (o'zakning ustki sathi) chiziladi. Buning uchun ichki aylanadan foydalaniladi. Aylanada  $36^\circ$  mavjudligini nazarda tutib, ko'pburchakning soniga muvofiq, o'zaro teng burchaklarni ifodalovchi yoylar ajratiladi. Masalan, o'nolti burchakni chizish uchun aylana  $22,5^\circ$  dan ( $360^\circ : 16 = 22,5^\circ$ ) bo'lishi kerak. Ushbu belgilardan foydalanib dastlabki ko'pburchaklar chiziladi. Aylana belgilaridan o'tkazilgan radiuslar boshqa ko'pburchaklarni chizishda yordam beradi.



5-Rasm. Muqarnaslarning chizilish sxemalari

3-bosqichda shakldor qirralar chiziladi. Ishni chizilishi osonroq bo‘lgan qosh (toqya)dan boshlash ma’qul. Ortogonal ko‘rnishdagi qosh qirrasi katak chiziqlariga olinadi va chizmada ko‘rsatiladi. Ikki tarafdagи qoshlar bir-biriga qaragan, ya’ni simmetriya holida bo‘lgani uchun qosh chizmasining o‘ng va teskari (orqa) tomonlaridagi ko‘rinishlaridan foydalанилади. Muqarnas kosalarining shakldor qirralarini chizish nisbatan murakkabroq. Qirraning shakli teng tomonli katakkaka olinib o‘qiga nisbatan turli qiyalik holatlarda (rakurslarda) aks ettirilib chiziladi. Buning uchun tarzda kataklarning tik chiziqdagi balandliklari (masalan, 1-6 nuqtalar) va tarzda kataklarning ufqiy chiziqdagi nuqtalari (masalan, «a», «b», «c», «d» nuqtalar) belgilanadi. Ular yordamida turli holatlardagi kataklar chizib olinadi. Kataklaryordamida hamma shakllar qirralarining chiziqlari chiqariladi. Yuqorida aytilgandek, shakldor qirralar ham bo‘g‘inma-bog‘in chizib chiqiladi. Kallak qirralarining sirtlaridagi naqshlarni ham turli qiyalik holatlarda ko‘rsatishda kataklarga olish usuli qo‘l keladi. Muqarnasli ustun kallagi qalamda chizilgandan so‘ng tegishli qoida va uslublarga ko‘ra suvbo‘yoqda bo‘yash bosqichi bajariladi. Muqarnasli kallakning soyalarini chizish murakkabligi va hozirga qadar ishlab chiqilmaganligi uchun talabalarga chizmani soyalarsiz bajarish tavsiya etiladi.

#### References:

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqarnas>
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Sharafa>
3. С. БУЛАТОВ-УЗБЕК ХАЛІК АМАЛИЙ БЕЗАК САНЬЯТИ ТОШКЕНТ «МЕХНАТ ► 1991
4. ARXITEKTURAVIY LOYIHALASH ASOSLARI-Arxitektura fanlari doktori A. O’ralovning umumiyl tahriri ostida TOSHKENT — «NOSHIR» — 2010
5. Yuldasheva, M. K., & Kamilova, M. (2023). FOREIGN EXPERIENCE IN THE DESIGN AND CONSTRUCTION OF INNOVATIVE ARCHITECTURE OF MUSEUMS OF THE WORLD. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 320-326.
6. Kamilova, M. E., & Xamrakulov, O. M. (2023). PROBLEMS AND MAXIMUM PRESERVATION OF THE TRADITIONAL STRUCTURE OF HOUSING IN THE HISTORICAL PART OF THE CITY OF SAMARKAND. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*.
7. Yuldasheva, M., Rakhmanova, M., & Kamilova, M. (2023). Harmonization of the Interior in the Traditional Folk Dwelling of Samarkand. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 4(10), 1-5.
8. Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). USE OF LOCAL RAW MATERIALS IN THE REPAIR OF PATTERNS AND DECORATIONS OF CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL MONUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(2), 679-683.

9. Salimov, O. M., Gayratovna, I. D., & Nigora, S. (2022). Use of Local Building Materials in the Natural Climate of Central Asia. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 8, 129-130.

